

**O'ZBEK VA NEMIS TILLARDA FE'LNING MAJHUL  
NISBATINING IFODALANISHI**

*M. Ro'ziyev*

*Bukhara State University, Senior Teacher of the  
German Language Department*

**Kalit so'zlar:** *Majhul nisbat, hind-yevropa tillari, turkiy tillari, grammatik hodisa, fe'lning qo'shma shakli, fe'lning zamon shakllari, subyekt, obyekt*

**Ключивые слова:** *страдательный залог, индоевропейские языки, тьюрецкие языки, грамматические явления, сложная форма глагола, временная форма глагола, субъект, объект*

**Key words:** *passive voice, Indo-European languages, Turkic languages, grammatical phenomena, complex form of the verb, tense form of the verb, subject, object*

**Annotasiya:** *Maqolada o'zbek va nemis tillarida fe'lning majhul nisbatini ifodaolanishi to'grisida gap boradi. O'zbek va nemis tilidagi fe'lning majhul nisbatini o'rtasidagi farq tahlil etiladi.*

**Аннотация:** *В данной статье говорится о выражение страдательного залога в узбекскому и немецкому языках. А также анализируется различие между узбекское и немецкое страдательного залога.*

**Annotation :** *This article talks about the expression of the passive voice in the Uzbek and German languages. It also analyzes the difference between the Uzbek and German passive voice.*

Hozirgi kunda mamlakatimizda xorijiy tillarga bo'lgan qiziqish nihoyatda kuchli va shuningdek xorijiy tillarni tilni o'rganish uchun keng imkoniyatlar ham yaratib berilgan. Ayniqsa Respublikamiz Prezidenti Shavkat Mirziyoevning "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatiadan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbiirlari to'grisida "2021 yil 19 maydagi PQ- 5117 –son Qarori Respublikamizda xorijiy tillarni o'rganishni yanada rivojlantirish uchun chin ma'noda tub burilish bo'ldi. Ilgilangan me'yorlar e'tiborga olingan holda takomillashtirildi.

Darhaqiqat, xorijiy tillarni o'rganish va o'rgatish yurtimizda katta ahamiyatga ega bo'lib, chet mamlakatlar bilan hamkorlik aloqalarining kuchayishi birinchi navbatda ta'lim sohasida tilshunoslikning rivojlanishiga turtki bo'ldi. Chunki o'zga davlat tilini bilmasdan turib, u bilan aloqaga kirishish qiyindir.

Chet tilini o'rganishga asosan ikki tilni bir biriga qiyoslab, ularning farqli va o'xshash tomonlari, xususiyatlari ko'rsatib beriladi. Har bir tilning o'ziga xos grammatik qonun-qoidalar mavjud. „Grammatik va leksik ma'nolar xususiyatlariga ko'ra bir-biridan farq qilsa ham, ishlatishda, ya'ni nutqda bir-biriga uzviy bog'langan. Biri ikkinchisiz uchramaydi: Grammatik ma'no leksik ma'noga qo'shimcha ravishda namoyon bo'ladi va turli grammatik munosabatlarni ifodalaydi: bir so'zni ikkinchi so'zga bo'lgan munosabatini, so'zni shaxsga, songa, zamonga va hokazolarga bo'lgan aloqasini ko'rsatadi.

Shu nuqtai nazardan grammatika fani tilning boshqa bo'limlari bilan bog'langan holda va nemistilining hozirgi zamon mezoniga mos holatda zamonaviy uslub va metodlar asosida o'qitish zarur bo'ladi. O'zbek tili va nemis tili genetik jihatdan bir-biriga qarindosh bo'lmagan tillar

hisoblanadi. Ya'ni o'zbek tili turkiy tillar oilasiga , nemis tili esa hind-yevropa tillar iolasiga kiradi . Mazkur o'xshash bo'lmagan ikki tildagi Grammatik xodisalarning tuzilishi, ularning bir tildan ikkinchi tilga berilish imkoniyatlarini , ular o'rtasidagi o'xshash va farqli tomonlarini ko'p bo'lib . bu maqolada majhul nisbatning ikki tilda berilishi to'g'risida so'z boradi .

O'zbek tilida

Fe'l ifodalagan harakat bilan uning bajaruvchisi (sub'ekti) va predmeti (ob'ekti) yoki bir necha bajaruvchi (sub'ektlar) orasidagi munosabatning ifodalanishi fe'l nisbati deyiladi. Harakat bilan uning bajaruvchisi orasidagi munosabat turlicha bo'ladi. Ma'lum bir shaklda harakat ega bilan ifodalangan shax syoki predmet tomonidan bajariladi. Masalan: Bobur ota yurtidan batamom ajralganini endi astoydil his qildi (P.Qodirov). Fe'l ifodalagan harakat bilan uning bajaruvchisi (sub'ekti) va predmeti (ob'ekti) yoki bir necha bajaruvchi (sub'ektlar) orasidagi munosabatning ifodalanishi fe'l nisbati deyiladi. Harakat bilan uning bajaruvchisi orasidagi munosabat turlicha bo'ladi. Ma'lum bir shaklda harakat ega bilan ifodalangan shax syoki predmet tomonidan bajariladi. Masalan: Bobur ota yurtidan batamom ajralganini endi astoydil his qildi (P.Qodirov).

O'zbek tilida Aniq nisbat , O'zlik nisbat , Majhullik nisbati , Birgalik nisbat, Ortirma nisbat bor . Majhullik nisbati

Bu shakldagi fe'lda harakat bajaruvchisi sub'ekt (ega) emas, ob'ekt (to'ldiruvchi) sanaladi yoki harakatning haqiqiy bajaruvchisi noma'lum bo'ladi.

Masalan: Ot-aravalar birin-ketin saroyga olib kirildi (H.G`.) gapida olib kirildi harakatining bajaruvchi sub'ekti noma'lum, ot-aravalar so'zi ega vazifasida kelsa-da, ob'ekt vazifasini bajargan.

Kesimi majhullik nisbatidagi fe'l bilan ifodalangan gap qurilishi tilshunoslikda passiv konstruktsiya deb yuritiladi.

Majhullik nisbati quyidagi qo'shimchalar bilan yasaladi:

a) fe'l negiziga unidan so'ng -l, undoshdan so'ng -il affiksini qo'shish bilan: yasa-l(-di), ata-l(-di), yut-il(-di), sot-il(-di) kabi;

b) fe'l negiziga unidan so'ng -n, undoshdan so'ng -in affiksini qo'shish bilan: bastala-n(-di), ol-in(-di) kabi.

Majhullik nisbatdagi fe'lni hosil qilishda -l (-il) affiksi ko'proq qo'llaniladi. Ba'zan ayni bir fe'l negizidan -l (-il), -n (-in) affikslari bilan ham o'zlik, ham majhullik nisbati yasalishi mumkin. Bunday bir xil shaklda kelgan bir xil fe'l negizining o'zlik yoki majhullik nisbatda ekanligi matndan aniqlaniladi. Masalan: Zulfiya darsga tayyorlandi. Operatsiyaga meditsina uskunolari tayyorlandi.

Nemis tilida nisbat ikkiga bo'linadi , yani aniq nisbat (das Aktiv ) va majhul nisbat (das Passiv ) .Majhul nisbatda ish-harakat to'ldiruvchiga qaratilgan bo'ladi . Nemis tilida majhul nisbat faqat o'timli fe'llardan yasaladi .

Die Kontrollarbeit wird von den Studenten geschriben.

Nemis tilida majhul nisbat o'zbek tilidagi majhul nisbatdan farqli o'laroq qo'shma shaklda bo'ladi ya'ni warden yordamchi fe'ldan va mustaqil fe'lninng Sifatdosh 2 dan yasaladi. Gapda warden yordamchi fe'li tuslanib ikkinchi o'rinda, mustaqil fe'l esa gapning oxirida qo'yiladi .

Das Buch wird vom Studenten gelesen .

Majhul nisbat nemis tilida oltita zamon shakliga va yana Infinitiv1 va 2 Passiv shaklga ega .

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, o'zbek tilidagi majhul nisbat nimis tilidagi majhul nisbatdan ifodlanishi jihatdan farrq qilishini yuqorida ko'rib o'tdik. Nemis tilida majhul nisbatni o'zbek tiliga tarjima qilinganda, ba'zi hollarda o'zbek tilida aniqlik yoki birgalik instate orqali ifodalanadi .

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Шукуров Ш. Узбек тилида феълларнинг тараккиёти . Т .1980
2. Шоабдурахмонов Ш. ва бошқалар . Хозирги узбек адабий тили .Т.1980 .
3. Саидов С. , Зикриллаев Г. Немис тили грамматикаси .Т. 1973 .
4. Duden .Grammatik.Mannheim .Die Dudenredaktion .2001\
5. Ro'ziyev M. O'zbek va nemis tillarida shart maylining berilishi //Integration Conference on Integration of Pragmalinguistics, Functional Translation Studies and Language Teaching Processes. – 2022. – С. 203-205.
6. Izomovich, R. Z., & Fazliddinova, U. D. (2021, November). The Problems of Second Language Acquisition and Writing in Teaching English Language. In " *ONLINE-CONFERENCES*" *PLATFORM* (pp. 229-233).
7. Rasulov, Z. I. The problem of language economy from the perspective of language evolution. [https://uniwork.buxdu.uz/resurs/14162\\_1\\_335A013FB811809E768BB3EC8D34729184AA276D.pdf](https://uniwork.buxdu.uz/resurs/14162_1_335A013FB811809E768BB3EC8D34729184AA276D.pdf)
8. Umidullayevna, Saidova Mukhayyo. "SEMANTIC ANALYSIS OF ENGLISH POETIC TERMS IN LITERARY DICTIONARIES." *RESEARCH AND EDUCATION* 1.1 (2022): 38-46.<https://researchedu.org/index.php/re/article/view/682>
9. Саидова, Мухайё. "Inglizcha poetik terminlarning o'zbek tilida berilishida shakl va mazmun munosabati." *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ* (buxdu. uz) 13.13 (2022).[https://journal.buxdu.uz/index.php/journals\\_buxdu/article/view/6714](https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/6714)